

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**«MINERAL RESURSLAR INSTITUTI»  
DAVLAT MUASSASASI**

**USENOV RASUL BOVIRJONOVICH**

**QOLMAQIR KONI OKSIDLANGAN VA ARALASH MA'DANLARINI  
BOYITILUVCHANLIGINI O'RGANISH**

**04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Navoi 2023**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contend of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
of technical sciences**

**Usenov Rasul Bovirjonovich**

Qolmaqir koni oksidlangan va aralash ma'danlarini  
boyitiluvchanligini o'rganish..... 3

**Усенов Расул Бовиржонович**

Исследование обогатимости окисленных и смешанных руд  
месторождения Кальмакыр..... 21

**Usenov Rasul Bovirjonovich**

Study of the mineral processing of oxidized and mixed ores  
at the Kalmakyr deposit..... 39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 41

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**«MINERAL RESURLAR INSTITUTI»  
DAVLAT MUASSASASI**

**USENOV RASUL BOVIRJONOVICH**

**QOLMAQIR KONI OKSIDLANGAN VA ARALASH MA'DANLARINI  
BOYITILUVCHANLIGINI O'RGANISH**

**04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Navoi 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3268 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi «Mineral resurslar instituti» Davlat muassasasida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ndki.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Almatov Ilxomjon Mirzabek o'g'li**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:** **Sharafutdinov Ulugbek Ziyatovich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Xudoyarov Suleyman Rashidovich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Navoiy Davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc.17.04.06.2021.T.06.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « 15 » 04 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shoh ko'chasi, 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti majlislar zali. Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66; e-mail: info@ndki.uz, nsmi@gmail.com).

Dissertatsiya bilan Navoiy Davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (129 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shoh ko'chasi, 76v-uy, Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 31 » 03 kuni tarqatildi.

(2023 yil « 31 » 03 dagi 10 raqamli reyestr bayonnomasi)



**K. Sanakulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**O.U. Fuzaylov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD)

**A.U. Samadov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda elektr avtomobil ishlab chiqarish hajmining kengayishi va ekologik toza energiya ishlab chiqarish hajmining ko'payishi misga bo'lgan global talabni keskin oshirdi. Yer yuzidagi mis ma'danlarining zahiralari tobora kamayib borishi hamda ikkilamchi misning jahonda ishlab chiqarish hajmi kam ulushni tashkil qilishi mis qazib olish tannarxi oshishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda misning katta qismi mashinasozlik, qurilish va infratuzilmada ishlatiladi. Shu bilan birga oxirgi yillarda avtomobilsozlik sanoati rivojlanishi natijasida misdan foydalanish hajmining keskin oshishiga olib kelmoqda. Shu sababli misning miqdori kam bo'lgan konlarni qazib olish va qayta ishlashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish masalalarini hal etishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda dunyoda misning asosiy qismi sulfidlangan mis ma'danlarini qayta ishlash orqali olinmoqda va oksidlangan hamda aralash mis ma'danlarini gravitatsion, flotatsion va tanlab eritish usullarini qo'llagan holda boyitish va mavjudlarini takomillashtirishning yangi texnologik usullari va sxemalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, oksidlangan va aralash mis ma'danlarni boyitishda zamonaviy uskunalarni qo'llagan holda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish asosida mis ma'danlaridan kompleks foydalanish hisobiga misdan tashqari boshqa nodir metallarni ajratib olish natijasida ma'danni qayta ishlash tannarxini kamaytirish, texnologik jarayondan ajralib chiqayotgan chiqindi va gazlarni zararsizlantirish, ekologik toza va iqtisodiy samarador texnologik usullarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mis ma'danlarining yangi konlarini sanoatda o'zlashtirish maqsadida olib borilayotgan texnologik tadqiqotlarda mahalliy reagentlardan va yuqori ishlab chiqarish unumdorlikga ega zamonaviy uskunalardan foydalangan holda mis ma'danini qayta ishlash texnologiyarini ishlab chiqishga doir bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> «ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, ishlab chiqarishga energiya va resurs tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish...» kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, oksidlangan va aralash mis ma'danlarni boyitish jarayonlarini intensivlashtirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash imkonini beruvchi usullarni ishlab chiqish va joriy etishga qaratilgan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi, 2017 yil 24 iyuldagi PF-3145-son «Foydali qazilmalar konlarini sanoat yo'li bilan o'zlashtirish sohasidagi loyiha-qidiruv va ilmiy tadqiqot ishlari boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

«O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2019 yil 17 yanvardagi PQ-4124-son «Kon-metallurgiya tarmog‘i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada hizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. «Er to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Adabiyot ma‘lumotlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, oksidlangan mis ma‘danlarini qayta ishlashda dunyoning tog‘-kon sanoati bilan shug‘ullanuvchi mamlakat tadqiqotchilari va olimlari gidrometallurgiya jarayonlaridan foydalanishga e‘tibor qaratgan. Ilmiy poydevorni rivojlantirish va oksidlangan mis ma‘danlarini qayta ishlash texnologiyasini yaratishga quyidagi xorijiy va mahalliy olimlar katta hissa qo‘shdilar: S.I. Polkin, A.A. Abramov, V.A. Konev, V.M. Avdoxin, V.A. Bacharov, V.I. Melik Gaykazyan, S.I. Mitrofanov, S.V. Dudenkova, O.S. Bagdanov, A.K. Podnek, N.A. Yanis, V.A. Glembotskiy, V.I. Klassen, A.K. Kunbazarov, L.B. Voloshina, L.Ya. Shubov, S.I. Ivankov, N.K. Sheglova, M.M. Sorokin, V.D. Samigin, B.E. Goryachev, A.V. Zimin, Yu.P. Nazarova, S.Sh. Rozenfeld, M.A. Orel, L.K. Uzdebayeva va boshqalar.

O‘zbekistonda oksidlangan mis ma‘danlarini o‘rganishga quyidagi olimlar o‘zining ilmiy ishlarini bag‘ishlashgan: Q. Sanakulov, M.G. Sagdiyeva, B.R. Raimjonov, Ye.L. Popov, X. Axmedov, G.A. Lukomskaya, L.K. Uzdebayeva, S.A. Abduraxmonov, A.S. Xasanov, M.M. Yakubov, U.A. Ergashev, R.D. Allabergenov, D.B. Xolikulov va boshqalar.

Shu bilan birga, Qolmaqir konidan oksidlangan va aralash mis ma‘danlarini qayta ishlash bilan bog‘liq qator masalalar, jumladan, mis va oltinni yuqori ekologik toza texnologiya bilan ajratib olish yetarlicha o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti «Mineral resurslar instituti» Davlat muassasasi ilmiy-tadqiqot rejasining 1296-sonli – «Qolmaqir konining oksidlangan mis ma‘danlarini zamonaviy laboratoriya asbob-uskunalari yordamida qayta ishlash texnologik sxemasini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mis, oltin va boshqa metallarni ajratib olish imkonini beruvchi Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma‘danlarini qayta ishlashning samarali texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

oksidlangan va aralash mis ma‘danlarini qayta ishlash bo‘yicha jahon tajribasi materiallarini ko‘rib chiqish, o‘rganish va umumlashtirish;

Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma‘danlarining moddiy tarkibini kimyoviy, fizik-kimyoviy va mineralogik taxlillar asosida o‘rganish;

flotatsion va gravitatsion boyitish, magnitli saralash, shuningdek, gidrometallurgik tadqiqotlar asosida oksidlangan va aralash mis ma'danlarini boyitishning texnologik sxemalarini o'rganish;

tajriba materiallarini umumlashtirish, Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlarini qayta ishlashning samarali texnologik sxemasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyatidagi Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Qolmaqir koni oksidlangan va aralash mis ma'danlaridan mis, oltin va boshqa metallarni kompleks ajratib olish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlaridan olingan namunalarni kimyoviy, fizik-kimyoviy va mineralogik kabi taxlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlaridan misni ajratib olishda agitatsion chanlarda tanlab eritish hamda ekstraksiya va reekstraksiya jarayonlarini qo'llagan holda qayta ishlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

birinchi marta Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlaridan mis katodi ajratib olingan;

Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlaridan agitatsiya chanlardan chiqqan kekni flotatsion boyitish usulidan foydalangan holda oltinni ajratib olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlaridan boyitishning kombinatsiyalashgan usulidan foydalangan holda mis va oltin ajratib olish imkoniyati asoslangan va eksperimental tarzda tasdiqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

sulfat kislotasi eritmasi bilan agitatsion chanda tanlab eritish, ekstraksiya va reekstraksiya jarayonlarining optimal parametrlari aniqlash maqsadida, kompleks laboratoriya va tajriba sinovlarini o'tkazish uchun eksperimental qurilmalar ishlab chiqilgan;

Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlaridan LIX-984N ekstraktoridan foydalangan holda misni organik fazaga ajratish uchun ekstraksiya va reekstraksiya jarayonining texnologik parametrlari aniqlangan;

birinchi marotaba Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlaridan tarkibida 99,96% mis bo'lgan katodli mis olingan;

Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlarini kompleks qayta ishlash uchun gidrometallurgiya va flotatsiya usullarini qo'llash asosida misning ajralishi 73% va oltinning ajralishi 49% bo'lgan samarali va xavsiz texnologiya ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** sezilarli hajmdagi Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlarini qayta ishlashning samarali texnologiyasini aniqlash bo'yicha olib borilgan tajriba eksperimentlar hamda sanoat miqiyosida oltin va mis ajratib olish miqdorlarini qoniqarli mutonosibli bilan isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gidrometallurgiya usullarini qo‘llash orqali misni ajratib olish, bunda sulfat kislota eritmasi bilan chanda tanlab eritish, ekstraksiya va elektroliz orqali mis katodini olish hamda oltinni ajratib olish uchun boyitishning flotatsion usulni qo‘llashning ilmiy asosida ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma’danlaridan mis va oltin olishning samarali va yuqori ekologik toza texnologik sxemasini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qolmaqir konining oksidlangan va aralash ma’danlari boyitiluvchanligini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma’danlarini qayta ishlash bo‘yicha ishlab chiqilgan texnologiya «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJda amaliyotga joriy etilgan («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJning 2022-yil 29-sentyabrdagi AA-009642-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma’danlaridan boyitishning kombinatsiyalashgan usulidan foydalangan holda mis va oltin ajratib olish imkonini bergan;

gidrometallurgiya jarayonlaridan va flotatsion boyitish usullaridan foydalangan xolda kombinatsiyalashgan sxema «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJda amaliyotga joriy etilgan («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJning 2022-yil 29-sentyabrdagi AA-009642-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma’danlarini ekologik xavfsiz va yuqori samarali texnologiya asosida qayta ishlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqotlarning natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 103 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi bo‘yicha tavsiyalar, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Oksidlangan mis ma’danlarini qayta ishlash muammolarini taxlili**» deb nomlangan birinchi bobida oksidlangan va aralash mis ma’danlarini qayta ishlash muammolarining holati, ularni qayta ishlash

texnologiyasi, shuningdek, oksidlangan va aralash mis ma'danlaridan foydalanish tendensiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilgan. Oksidlangan mis ma'danlarini qayta ishlaydigan yirik zavodlar, xususan: «Tvin-Byutts» mis zavodi (AQSH), «Xayden» va «Leykshor» zavodlari (AQSH), Chingola koni (Zambiya), Bingam koni (AQSH), Aktogay majmuasi (Qozog'iston), Udokan koni (Rossiya) xaqida tuxtalgan. Qolmaqir koni o'zlashtirilishining qisqacha tarixi va oksidlangan mis ma'danlarini qayta ishlash bo'yicha mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Obektlar, materiallar va tadqiqot usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlarini tadqiq etish metodikasi keltirilgan.

Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlarining to'planish hajmlari tahlili bayon etilgan. Shuningdek, Qolmaqir koni atrofida oksidlangan va aralash mis ma'danlari joylashuv xaritasi keltirilgan (1-rasm).



**1-rasm. Oksidlangan va sulfidli mis ma'danlari joylashish sxemasi.**

Tadqiqotlar boyitish usullari (gravitatsiya, flotatsiya, magnit saralash) va gidrometallurgiya yordamida amalga oshirildi. Texnologik namunalarning moddiy tarkibini o'rganish standart kimyoviy va fizik-kimyoviy usullardan foydalangan holda amalga oshirildi. «MRI» Davlat Muassasasi va «Markaziy laboratoriya» Davlat Korxonasining kimyoviy laboratoriyalarida quyidagi asbob-uskunalar yordamida o'rtacha namunalarning spektral, mass-spektrometrik (ICP-MS) va kimyoviy tahlillari o'tkazildi:

- ZEE nit 700P atom-absorbtsion spektrofotometr;
- Perkin Elmer atom-absorbtsion spektrofotometr;
- ICP-MS mass-spektrometr;
- Skyray Instrument Explorer 7000 rentgenofluorescent analizatori va boshqalar.

Dissertatsiyaning «**Boyitish usullarini tadqiq qilish va Qolmaqir konining oksidlangan va aralash ma'danlaridan qimmatli komponentlarni ajratib olish imkoniyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlari o'rganilib, ular asosida oksidlangan misni kompleks qayta ishlash texnologiyasi ishlab chiqildi.

Qolmaqir konining balansdagi oksidlangan mis ma'danlari 9, 9a, 39 va balansdan tashqari oksidlangan mis ma'danlari 8a, 10, A-4 olingan 6 ta namunaning moddiy tarkibi o'rganilgan. Olingan natijalar 1-jadvalda ko'rsatilgan.

Namunalarni kimyoviy tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, Qolmaqir konining 39, 9 va 9a balansidagi oksidlangan mis ma'danlarida quyidagi elementlar mavjud: mis 0,9-1,1%; molibden 0,01%; oltin 1,4-2,1 g/t; kumush 5,0-6,2 g/t. 8a, 10, A-4 balansdan tashqari oksidlangan mis ma'danlarida kutilganidek, metall miqdori ancha past: mis 0,13-0,27%, molibden 0,007-0,009%, oltin 0,4 g/t, kumush 4,8-5,2 g/t.

**Kimyoviy taxlil bo'yicha mis, molibden, oltin va kumush tarkibi**

| Namuna olingan otval raqami | Cu, % | Mo, % | Au, g/t | Ag, g/t |
|-----------------------------|-------|-------|---------|---------|
| 39                          | 0,997 | 0,012 | 1,48    | 5,06    |
| 9                           | 1,142 | 0,01  | 2,18    | 6,29    |
| 9a                          | 1,053 | 0,01  | 1,52    | 5,12    |
| 8a                          | 0,131 | 0,008 | 0,43    | 5,24    |
| 10                          | 0,270 | 0,007 | 0,47    | 5,01    |
| A-4                         | 0,254 | 0,009 | 0,45    | 4,86    |

Oksidlangan va aralash mis ma'danlarini gravitatsion boyitish usullari bilan boyitish jarayonlarini tadqiq qilish. Gravitatsion boyitish uchun turli o'lchamdagi namunalar tayyorlandi: -3; -1; -0,5; -0,315 mm. Namuna o'lchami -0,315 mm tashkil qilganida 39-sonli balansdagi oksidlangan ma'dan boyitmasida oltin miqdori 1,48 g/t dan 13,27 g/t gacha oshdi, bunda oltinni ajralishi 20,66% ni tashkil qiladi. 9-sonli oksidlangan mis ma'dan boyitmasi oltin miqdori 2,11 g/t dan 13,02 g/t gacha oshdi, ajralish 22,28% ni tashkil qildi. Qolgan namunalarda xam natijalar takrorlangan.

Knelson MD3 markazdan qochma konsentratorida tajribalar o'tkazilganda eng yaxshi natija quyidagi parametrlarda hosil bo'ldi: 2,5-3,0 l/daq suyuqlik oqimi tezligi, rotor tezligi 70 ay/daq va Q:S = 1:3. Bunda oltin, kumush va misni ajratib olish mos ravishda 25,5%, 4,6% va 8,16% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, metallarning tarkibi quyidagicha edi: Au – 1,54 g/t; Ag – 1,13 g/t; Cu – 0,54 g/t.

Gravitatsion boyitish jarayonida qimmatbaho metallarning og'ir fraksiyaga ajralishi kuzatilmadi va qimmatbaho metallarning asosiy miqdori chiqindiga o'tdi. Shubhasiz, Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlari uchun gravitatsion usuldan foydalanish maqsadga muvofiq emas.


Magnit saralash usullari yordamida namunani boyitish jarayonlarini o'rganish. Nam magnitli saralash usuli zarrachalarni to'liqroq ajratish hisobiga boyitish samaradorligini oshiradi.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan namunalarda mahsulot chiqishi 1,5-2,3% ni tashkil etdi, temirning ajralishi esa past va 10,2-16,1% ni tashkil qildi. Magnit fraksiyadagi temir miqdori 31,2-37,8% ni tashkil qildi. Boshqa metallar asosan (98,1-99,7%) magnit bo'lmagan fraksiyaga o'tdi.

**5A tok kuchida nam magnit saralash natijalari**

| Namuna nomi | Boyitish mahsulotlari | Mahsulot chiqishi, % | Miqdori, % |      |        |         |     | Ajralish, % |      |      |      |      |
|-------------|-----------------------|----------------------|------------|------|--------|---------|-----|-------------|------|------|------|------|
|             |                       |                      | Fe         | Cu   | Mo     | Au, g/t | Al  | Fe          | Cu   | Mo   | Au   | Al   |
| 39          | Magnit fraksiya       | 1,8                  | 32,8       | 0,79 | 0,0023 | 1,23    | 3,3 | 11,8        | 1,7  | 0,5  | 1,6  | 1,1  |
|             | Nomagnit fraksiya     | 98,2                 | 4,5        | 0,86 | 0,0082 | 1,42    | 5,4 | 88,2        | 98,3 | 99,5 | 98,4 | 98,9 |

| Namuna nomi | Boyitish mahsulotlari | Mahsulot chiqishi, % | Miqdori, % |      |        |         |      | Ajarlish, % |      |      |      |      |
|-------------|-----------------------|----------------------|------------|------|--------|---------|------|-------------|------|------|------|------|
|             |                       |                      | Fe         | Cu   | Mo     | Au, g/t | Al   | Fe          | Cu   | Mo   | Au   | Al   |
|             | Dastlabki namuna      | 100                  | 5,0        | 0,86 | 0,0081 | 1,42    | 5,4  | 100         | 100  | 100  | 100  | 100  |
| 9           | Magnit fraksiya       | 1,5                  | 35,2       | 0,76 | 0,0021 | 1,95    | 5,71 | 10,2        | 1,3  | 0,3  | 1,4  | 1,4  |
|             | Nomagnit fraksiya     | 98,5                 | 4,7        | 0,92 | 0,0098 | 2,13    | 6,3  | 89,8        | 98,7 | 99,7 | 98,6 | 98,6 |
|             | Dastlabki namuna      | 100                  | 5,2        | 0,92 | 0,0097 | 2,13    | 6,3  | 100         | 100  | 100  | 100  | 100  |
| 9a          | Magnit fraksiya       | 1,7                  | 37,8       | 0,86 | 0,0024 | 1,34    | 5,3  | 16,1        | 1,6  | 0,4  | 1,5  | 1,6  |
|             | Nomagnit fraksiya     | 98,3                 | 3,4        | 0,89 | 0,0095 | 1,49    | 5,6  | 83,9        | 98,4 | 99,6 | 98,5 | 98,4 |
|             | Dastlabki namuna      | 100                  | 4,0        | 0,89 | 0,0094 | 1,49    | 5,6  | 100         | 100  | 100  | 100  | 100  |
| 8a          | Magnit fraksiya       | 2,3                  | 33,3       | 0,10 | 0,0019 | 0,51    | 4,2  | 14,3        | 1,6  | 0,6  | 2,7  | 1,6  |
|             | Nomagnit fraksiya     | 97,7                 | 4,7        | 0,15 | 0,0082 | 0,43    | 6,1  | 85,7        | 98,4 | 99,4 | 97,3 | 98,4 |
|             | Dastlabki namuna      | 100                  | 5,4        | 0,15 | 0,0080 | 0,43    | 6,1  | 100         | 100  | 100  | 100  | 100  |
| 10          | Magnit fraksiya       | 1,9                  | 34,6       | 0,25 | 0,0072 | 0,47    | 3,9  | 13,2        | 1,9  | 1,9  | 1,9  | 1,3  |
|             | Nomagnit fraksiya     | 98,1                 | 4,4        | 0,25 | 0,0073 | 0,46    | 5,8  | 86,8        | 98,1 | 98,1 | 98,1 | 98,7 |
|             | Dastlabki namuna      | 100                  | 5,0        | 0,25 | 0,0073 | 0,46    | 5,8  | 100         | 100  | 100  | 100  | 100  |
| A-4         | Magnit fraksiya       | 1,8                  | 31,2       | 0,23 | 0,0083 | 0,46    | 3,6  | 11,3        | 1,8  | 1,7  | 1,9  | 1,3  |
|             | Nomagnit fraksiya     | 98,2                 | 4,5        | 0,23 | 0,0086 | 0,44    | 5,1  | 88,7        | 98,2 | 98,3 | 98,1 | 98,7 |
|             | Dastlabki namuna      | 100                  | 5,0        | 0,23 | 0,0086 | 0,44    | 5,1  | 100         | 100  | 100  | 100  | 100  |



**2-rasm. Flotatsiya jarayoni sxemasi.**

Flotatsion boyitish usuli flotatsiya boyitmasini qayta tozalash bilan amalga oshirildi (2-rasm). Shuningdek, ushbu tajribaning chiqindilari gidrometallurgiya tadqiqotlariga jo‘natildi. Natijalar 3-jadvalda ko‘rsatilgan.

## Flotatsiya jarayoni natijalari

| Boyitish mahsulotlari                         | Mahsulot chiqishi, % | Miqdori, % |      |         |         | Ajrash, % |       |       |       |
|---|----------------------|------------|------|---------|---------|-----------|-------|-------|-------|
|   |                      | Cu         | Mo   | Au, g/t | Ag, g/t | Cu        | Mo    | Au    | Ag    |
| Balansdagi oksidlangan mis ma'danlari         |                      |            |      |         |         |           |       |       |       |
| Oltin boyitmasi                               | 3,1                  | 4,32       | 0,01 | 25,36   | 32,1    | 15,71     | 3,10  | 51,02 | 20,16 |
| Tozalash chiqindisi                           | 1,2                  | 1,23       | 0,01 | 0,62    | 1,93    | 1,73      | 1,20  | 0,48  | 0,47  |
| Nazorat flot. boyitmasi                       | 1,3                  | 1,12       | 0,01 | 3,02    | 5,07    | 1,71      | 1,30  | 2,55  | 1,34  |
| Chiqindi                                      | 94,4                 | 0,73       | 0,01 | 0,75    | 4,08    | 80,85     | 94,40 | 45,95 | 78,03 |
| Dastlabki namuna                              | 100                  | 0,85       | 0,01 | 1,54    | 4,94    | 100       | 100   | 100   | 100   |
| Balansdan tashqari oksidlangan mis ma'danlari |                      |            |      |         |         |           |       |       |       |
| Oltin boyitmasi                               | 3,6                  | 0,94       | 0,01 | 5,53    | 21,7    | 14,47     | 3,60  | 42,97 | 17,00 |
| Tozalash chiqindisi                           | 1,1                  | 0,77       | 0,01 | 0,23    | 2,84    | 3,62      | 1,10  | 0,55  | 0,68  |
| Nazorat flot. boyitmasi                       | 1,5                  | 0,89       | 0,01 | 0,56    | 3,35    | 5,71      | 1,50  | 1,81  | 1,09  |
| Chiqindi                                      | 93,8                 | 0,19       | 0,01 | 0,27    | 3,98    | 76,20     | 93,80 | 54,67 | 81,23 |
| Dastlabki namuna                              | 100                  | 0,23       | 0,01 | 0,46    | 4,60    | 100       | 100   | 100   | 100   |


3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, balansdagi oksidlangan mis ma'danlar uchun boyitmaning unumi 3,1% ni tashkil etdi. Bunda oltin va kumushning boyitmaga ajralishi mos ravishda 51,02% va 20,16% ni tashkil etdi. Boyitmadagi oltin va kumushning miqdori mos ravishda 25,36 g/t va 32,10 g/t ni tashkil etdi. Mis va molibdenning ajralishi mos ravishda 15,71 va 3,10% ni tashkil qildi, bunda mis miqdori 4,32% va molibden 0,01% ni ko'rsatdi. Shuningdek, balansdan tashqari oksidlangan mis ma'danlar uchun boyitmaning unumi 3,6% ni tashkil etdi. Oltin va kumushning boyitmaga ajralishi mos ravishda 42,97% va 17,0% ni tashkil etdi. Boyitmadagi oltin va kumushning miqdori mos ravishda 5,53 g/t va 21,70 g/t ni tashkil etdi. Mis va molibdenning ajralishi mos ravishda 14,41 va 3,60% ni tashkil etdi, bu esa oksidlangan mis minerallarining ajralmaganligini va flotatsiya chiqindilariga o'tishini ko'rsatadi.

Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlaridan qimmatli komponentlarni ajratib olish uchun ishqor va kislota eritmalari bilan tanlab eritish (agitatsion chanli va uyumli) amalga oshirildi.

Laboratoriya sharoitida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra Qolmaqir koni oksidlangan mis ma'danlarini sulfat kislota eritmasi bilan agitatsion chanda tanlab eritishning optimal parametrlari aniqlandi, ular quyidagilardan iborat: sulfat kislota konsentratsiyasi – 3-5%, ma'dan o'lchamlari sinfi, -1 mm, vaqt – 30 daqiqa, harorat

–  
Q:S = 1:3.

40°S,



**3-rasm. Misning ajralishining Q:S nisbatiga bog'liqligi.**

Bizning holatimizda uyumli tanlab eritish turli o'lcham sinflarida (-0,5; -1; -3; -5; -10 mm) quyidagi parametrlar bilan amalga oshirildi: H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> – 5%, Q:S = 1:2, xona harorati, namuna 5000 g. Dastlabki namunalar sifatida 39-sonli oksidlangan mis ma'danlaridan foydalanilgan.

4-jadval

**Xar xil o'lchamli sinflarda uyumli tanlab eritish natijalari**

| Sinf o'lchamlari, mm | Kek chiqishi, % | Metallarning kekdagi miqdori, % |       | Metallarning eritmaga ajralishi, % |       |
|----------------------|-----------------|---------------------------------|-------|------------------------------------|-------|
|                      |                 | Cu                              | Mo    | Cu                                 | Mo    |
| -0,5                 | 98              | 0,51                            | 0,019 | 46,83                              | 19,04 |
| -1                   | 97              | 0,21                            | 0,021 | 65,95                              | 11,43 |
| -3                   | 97              | 0,23                            | 0,019 | 63,88                              | 19,87 |
| -5                   | 98              | 0,25                            | 0,019 | 60,38                              | 19,04 |
| -10                  | 97              | 0,35                            | 0,019 | 56,66                              | 19,87 |
| Dastlabki namuna     |                 | 0,94                            | 0,023 |                                    |       |



#### **4-rasm. Xar xil o'lchamli sinflarda uyumli tanlab eritish.**

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, dastlabki namuna sinf o'lchami -1 mm ni tashkil qilganda uyumli tanlab eritish jarayonidan so'ng mis eritmaga 65,9% gacha o'tgan. Shuni ta'kidlash kerakki, kichik sinflarda ma'danlarning o'ta mayda qismi kislotaning o'tuvchanligiga to'sqinlik qilib, misni eritmaga ajralishini kamaytirdi.

Natijalardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, chanda eritish usuli bir qator afzalliklarga ega, bu esa uni boshqa gidrometallurgiya jarayonlari qatorida keng qo'llash imkonini beradi va qiyin mineral xom ashyoni qayta ishlashda istiqbolli xisoblanadi:

- uyumli tanlab eritishdan farqli o'laroq, to'liq nazorat qilish va boshqarish imkoniyati mavjud;

- minerallarning degradatsiya jarayonini tezlashtirish maqsadida, usul maydalangan ma'danlarda qo'llaniladi;

- muayyan tanlab eritish sharoitlarini yaratib, qimmatbaho metallarni ajratib olishda yuqori darajada selektivlikka erishish mumkin.

- usul maxsus jihozlardan foydalanishni talab qilmaydi va kislotaga chidamli chanlarda amalga oshirilishi mumkin;

- past haroratli, atmosferaga xavfli chiqindilarni chiqarmasdan, yopiq suv aylanishi bilan, ekologik toza texnologiya xisoblanadi.

Metallarni chanlarda tanlab eritishning muhim xususiyati shundaki uyumli tanlab eritishga nisbatan sarflangan vaqt kamroq bo'ladi. Tanlab eritish texnologiyasida jarayon tezligi uning samaradorligini belgilaydi.

Ekstraksiya yo'li bilan eritmalardan misni ajratib olish uchun turli xil sharoitlarda turli ekstraktorlardan foydalangan holda ekstraksiya va reekstraksiya bo'yicha izlanishlar olib borildi (5-jadval).

Laboratoriya sharoitida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra ekstraksiya va reekstraksiya jarayonlarining optimal parametrlari aniqlandi, ular quyidagilardan iborat: ekstraktor LIX-984N bilan erituvchi o'rtasidagi nisbat – 50/50, aralashtirish vaqti – 3 daqiqa, harorat – xona harorati (25-30°C), organik va suvli fazalar nisbati – 1:1.

### Turli ekstraktorlar bilan o'tkazilgan ekstraksiya natijalari


| Tajriba | Ekstragent nomi | Suvli fazada Cu miqdori, g/l | Organik fazaga Cu ni o'tishi, % |
|---------|-----------------|------------------------------|---------------------------------|
| 1       | LIX984-N        | 0,11                         | 93,4                            |
| 2       | Mextral 5774    | 0,12                         | 92,8                            |
| 3       | Mextral 5640H   | 0,10                         | 94,0                            |
| 4       | Mextral 984N    | 0,11                         | 93,4                            |
| 5       | Mextral 973N    | 0,09                         | 94,6                            |

Mis elektrolizi. Elektroliz uchun quyidagi parametrlar qo'llanilgan: mis miqdori 36,8 g/l bo'lgan elektrolit;  $H_2SO_4$  konsentratsiyasi 150-175 g/l; tok zichligi 270-300 A/m<sup>2</sup>; elektrolit harorati 35-50°C; elektroliz vaqti 1 kun.

Olingan katodli mis M1k darajasiga nafaqat mis tarkibi (99,95% dan kam bo'lmagan), balki barcha asosiy aralashmalar bo'yicha ham mos keldi.

### Mis katodining kimyoviy tarkibi, %

|       |        |          |           |       |        |
|-------|--------|----------|-----------|-------|--------|
| Cu    | Bi     | Sb       | As        | P     | Pb     |
| 99,96 | 0,0003 | 0,0001   | 0,0003    | 0,002 | 0,0006 |
| S     | Sn     | Ni       | Fe        | Zn    | Ag     |
| 0,005 | 0,0003 | <0,00001 | <0,000003 | 0,001 | 0,0003 |



5-rasm. Mis katodi.

Dissertatsiyaning «Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlarini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish» deb nomlangan to'rtinchi bobida Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlarini qayta ishlashning kombinatsiyalashgan usuli ishlab chiqildi. Bu usul quyidagilarni o'z ichiga oladi: bir bosqichli maydalash, -1 mm sinf o'lchami 80% gacha bo'lgan bir bosqichli yanchish, 3%li sulfat kislota bilan agitatsion chanlarda tanlab eritish,

filtrlash, yuvish, ekstraksiya, reekstraksiya va elektroliz. Yuvilgan kek asosiy flotatsiya, nazorat flotatsiyasi va tozalashga yuboriladi (6-rasm).

7-jadval

### Texnologik sxemaning gidrometallurgiya qismi natijalari

| Ma'dan turi        | Tanlab eritish  |                                 |                            |                             | Ekstraksiya                                  |                                     |                                   | Cu ning to'liq o'tishi, % |
|--------------------|-----------------|---------------------------------|----------------------------|-----------------------------|--|-------------------------------------|-----------------------------------|---------------------------|
|                    | Kek chiqishi, % | Cu ning boshlang'ich miqdori, % | Cu ning kekdagi miqdori, % | Cu ning eritmaga o'tishi, % | Cu ning boshlang'ich eritmadagi miqdori, g/l | Cu ning suvli fazadagi miqdori, g/l | Cu ning organik fazaga o'tishi, % |                           |
| Balansdagi         | 98              | 0,9                             | 0,25                       | 72,78                       | 2,2  | 0,123                               | 94,4                              | 68,70                     |
| Balansdan tashqari | 97              | 0,3                             | 0,13                       | 57,97                       | 1,6  | 0,078                               | 95,1                              | 55,12                     |

8-jadval


### Texnologik sxemaning flotatsiya qismi natijalari

| Boyitish mahsulotlari   | Chiqish, % | Miqdori, % |      |         |         | O'tishi, % |       |       |       |
|-------------------------|------------|------------|------|---------|---------|------------|-------|-------|-------|
|                         |            | Cu         | Mo   | Au, g/t | Ag, g/t | Cu         | Mo    | Au    | Ag    |
| Balansdagi              |            |            |      |         |         |            |       |       |       |
| Oltin boyitmasi         | 4,1        | 0,90       | 0,01 | 17,96   | 25,2    | 14,00      | 4,10  | 48,86 | 22,31 |
| Tozalash chiqindisi     | 6,2        | 0,31       | 0,01 | 1,24    | 3,61    | 7,29       | 6,20  | 5,10  | 4,83  |
| Nazorat flot. boyitmasi | 5,7        | 0,25       | 0,01 | 1,12    | 5,41    | 5,41       | 5,70  | 4,24  | 6,66  |
| Chiqindi                | 84         | 0,23       | 0,01 | 0,75    | 3,65    | 73,30      | 84,00 | 41,80 | 66,20 |
| Dastlabki namuna        | 100        | 0,26       | 0,01 | 1,51    | 4,63    | 100        | 100   | 100   | 100   |
| Balansdan tashqari      |            |            |      |         |         |            |       |       |       |
| Oltin boyitmasi         | 3,1        | 0,70       | 0,01 | 5,28    | 33,1    | 15,98      | 3,10  | 32,86 | 22,12 |
| Tozalash chiqindisi     | 3,6        | 0,26       | 0,01 | 0,98    | 2,74    | 6,89       | 3,60  | 7,08  | 2,13  |
| Nazorat flot. boyitmasi | 2,3        | 0,20       | 0,01 | 1,14    | 3,23    | 3,39       | 2,30  | 5,26  | 1,60  |
| Chiqindi                | 91         | 0,11       | 0,01 | 0,3     | 3,78    | 73,73      | 91,00 | 54,80 | 74,15 |
| Dastlabki namuna        | 100        | 0,14       | 0,01 | 0,50    | 4,64    | 100        | 100   | 100   | 100   |

| Dastlabki namuna         |       |      |
|--------------------------|-------|------|
| Nomlanishi               | Cu    | Au   |
| Miqdori, g/t             | 8 000 | 1,2  |
| Ajralishi, %             | 100   | 100  |
| Ajralishi 10 tonna uchun | 80 kr | 12 r |

| Eritma                   |          |    |
|--------------------------|----------|----|
| Nomlanishi               | Cu       | Au |
| Miqdori, g/t             | 4 (5822) | -  |
| Ajralishi, %             | 72,78    | -  |
| Ajralishi 10 tonna uchun | 58,2kr   | -  |

| Mis katodi               |         |    |
|--------------------------|---------|----|
| Nomlanishi               | Cu      | Au |
| Miqdori, g/t             | 99,96   | -  |
| Ajralishi, %             | 68,7    | -  |
| Ajralishi 10 tonna uchun | 54,9 kr | -  |



6-rasm. Oksidlangan va aralash mis ma'danlarini qayta ishlash texnologik sxemasi.

Qayta ishlash orqali quyidagi to‘liq ajratib olish natijalariga erishildi (7-8-jadval):

- balansdagi oksidlangan mis ma’danlari uchun: mis – 73%, oltin – 48,8%;
- balansdan tashqari oksidlangan mis ma’danlari uchun: mis – 58%, oltin – 32,8%.

Bundan tashqari kapital va ekspluatatsion xarajatlar, ishchilarning ish haqi, sarf materiallar va reaktivlar hisoblab chiqilgan.

9-jadval

### Bir tonna oksidlangan mis ma’danlarini qayta ishlash xarajatlari

| 1. Ekspluatatsiya xarajatlari, doll./yil.                            |            |
|--|------------|
| Ish xaqi   | 1 876 478  |
| Reagentlar va materiallar  | 15 890 028 |
| Elektroenergiya sarfi  | 9 952 070  |
| Tamirlash (uskunaning balans qiymatidan 2%)                          | 1 566 004  |
| Jami:  | 29 284 580 |
| 2. Qo‘shimcha xarajatlar, doll./yil.                                 |            |
| Umumiy iqtisodiy xarajatlar (ekspluatatsiya xarajatlarning 10%)      | 2 928 458  |
| Boshqaruv xizmatlari (umumiy iqtisodiy xarajatlarning 25%)           | 732 114    |
| Amortizatsiya (uskunalar balans qiymatining 10%)                     | 7 830 020  |
| Jami:  | 11 490 592 |
| Jami xarajatlar: doll./yil   | 40 775 172 |
| 1 tonna balansdagi ma’danlarni qayta ishlash qiymati, doll.:         | 16,31      |
| 1 tonna balansdan tashqari ma’danlarni qayta ishlash qiymati, doll.: | 8,15       |

Bunda yillik savdo hajmi quyidagicha:

- balansdagi ma’danlari uchun 201,6 mln. dollar, 1 tonna ma’dandan olinadigan qiymat 80,64 dollarni tashkil etadi. Texnologiyaning solishtirma iqtisodiy samarasi 64,33 dollar/tonnani tashkil qiladi;

- balansdan tashqari ma’danlari uchun 104,4 mln. dollar, 1 tonna ma’dandan olinadigan qiymat 20,88 dollarni tashkil etadi. Texnologiyaning solishtirma iqtisodiy samarasi 12,73 dollar/tonnani tashkil qiladi.

Olingan ko‘rsatkichlar, tavsiya etilgan texnologiyaning samaradorligini ko‘rsatadi.

Balansdagi oksidlangan mis ma’danlari bo‘yicha:

- to‘plangan pul oqimi – 683,17 mln. dollar;
- rentabellik – 65,02%;
- o‘zini oqlash muddati – 3 yil.

Balansdan tashqari oksidlangan mis ma’danlari bo‘yicha:

- to‘plangan pul oqimi – 1 021,11 mln. dollar;
- rentabellik – 37,61%;
- o‘zini oqlash muddati – 4,7 yil.

## XULOSA

«Qolmaqir koni oksidlangan va aralash ma'danlarini boyitiluvchanligini o'rganish» mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafasi doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Qolmaqir koni balansdagi va balansdan tashqari oksidlangan va aralash mis ma'danlarining moddiy tarkibini o'rganish shuni ko'rsatdiki, kimyoviy tarkibi bo'yicha namunalar 75-85% litofil va alyumosilikat tarkibi bilan tavsiflanadi: 62-69%  $\text{SiO}_2$ ; 10-12%  $\text{Al}_2\text{O}_3$  va 9-10%  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ . Namunalardagi gidroksid va yergidroksidi metallarining umumiy miqdori 3 dan 6% gacha o'zgarib turadi. Qolmaqir konining 39, 9 va 9a balansdagi oksidlangan mis ma'danlarida quyidagi elementlar keng tarqalgan: mis 0,9-1,1%; molibden 0,01%; oltin 1,4-2,1 g/t; kumush 5,0-6,2 g/t. Qolmaqir konining 8a, 10 va A-4 balansdan tashqari oksidlangan mis ma'danlarida kutilganidek, metall miqdori ancha past: mis 0,13-0,27%, molibden 0,007-0,009%, oltin 0,4 g/t, kumush 4,8-5,2 g/t.

2. Oksidlangan va aralash mis ma'danlaridan sulfat kislota eritmasi bilan tanlab eritish orqali agitatsion chanida 80% gacha mis ajratib olish imkoniyati ko'rsatilgan. Agitatsion chanlarda tanlab eritish, ekstraksiyalash va reekstraksiyalashning optimal parametrlari aniqlangan. Yangi ekstragentlar ko'rib chiqilgan.

3. Uyumli tanlab eritishda dastlabki namunalarning o'lcham sinfi -1 mm bo'lganda, misning eritmaga ajralishi 65,9% gacha ko'tarildi. Kichik sinflarda ma'danlarning o'ta mayda qismi kislotaning o'tuvchanligiga to'sqinlik qilib, misni eritmaga ajralishini kamaytirdi.

4. Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlarini qayta ishlashning kombinatsiyalashgan gidrometallurgiya-flotatsion texnologiyasi o'rganilib, balansdagi namunalarda: mis – 73%, oltin – 48,8% va balansdan tashqari namunalarda: mis – 58%, oltin – 32,8% to'liq ajralishiga erishildi

5. Laboratoriya va yarim sanoat tadqiqotlari natijasida Qolmaqir konining oksidlangan va aralash mis ma'danlarini qayta ishlash jarayonida birinchi marta M1k navi talablariga javob beradigan mis miqdori 99,96% bo'lgan katodli mis olindi.

6. Yiliga 2,5 mln. tonna (1 bosqich) balansdagi oksidlangan mis ma'danlarini qayta ishlashda loyihaning oqlash muddati 3 yil va qaytish (IRR) 65,02% ni tashkil qildi. Shuningdek, yiliga 5 mln. tonna (2 bosqich) balansdan tashqari oksidlangan mis ma'danlarini qayta ishlashda loyihaning oqlash muddati 4,7 yil va qaytish (IRR) 37,61% ni tashkil qildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.17/04.06.2021.Т.06.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
НАВОЙСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ГОРНО-  
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ГОСУДАРСТВЕННОЕ УЧРЕЖДЕНИЕ  
«ИНСТИТУТ МИНЕРАЛЬНЫХ РЕСУРСОВ»**

**УСЕНОВ РАСУЛ БОВИРЖОНОВИЧ**

**ИССЛЕДОВАНИЕ ОБОГАТИМОСТИ ОКИСЛЕННЫХ И  
СМЕШАННЫХ РУД МЕСТОРОЖДЕНИЯ КАЛЬМАКЫР**

**04.00.14 – Обогащение полезных ископаемых**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Навои 2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером № В2022.4.PhD/Т3268.

Диссертация выполнена в ГУ «Институт минеральных ресурсов».

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.ndki.uz](http://www.ndki.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** Алматов Илхом Мирзабек угли – доктор философии (PhD) по техническим наукам, старший научный сотрудник

**Официальные оппоненты:** Шарафутдинов Улугбек Зиятович доктор по техническим наукам, доцент  
Худояров Сулейман Рашидович кандидат технических наук, доцент

**Ведущая организация:** Ташкентский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «15» 04 2023 года в 14:00 часов на заседании Научного Совета DSc.17/04.06.2021.Т.06.01. Адрес: 210100, г. Навои, ул. Галаба шох, 76в. Зал заседаний Навоийского государственного горно-технологического университета. Тел.: (79) 223-23-32; факс: (79) 223-49-66; e-mail: [info@ndki.uz](mailto:info@ndki.uz), [nsmi@gmail.com](mailto:nsmi@gmail.com).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Навоийского государственного горно-технологического университета (зарегистрирован за №129). Адрес: 210100, г. Навои, ул. Галаба шох, 76в. Тел.: (79) 223-23-32; факс: (79) 223-49-66.


Автореферат диссертации разослан «31» 03 2023 года.

(реестр протокола рассылки № 10 от 31.03.2023 года).



  
**К. Санакулов**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д. т. н., профессор

  
**О.У. Фузайлов**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д. ф. (PhD) т. н.

  
**А.У. Самадов**  
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д. т. н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой практике с расширением производства электромобилей и увеличением производства экологически чистой энергии резко возрос мировой спрос на медь. Сокращение запасов медных руд на Земле и малая доля мирового производства вторичной меди приводят к удорожанию себестоимости добычи меди. Сегодня большая часть меди используется в машиностроении, строительстве и инфраструктуре. В последние годы развитие автомобилестроения привело к резкому увеличению использования меди. В связи с этим важно уделить особое внимание разработке новых технологий добычи и переработки руд с низким содержанием меди.

На сегодняшний день большая часть меди в мире добывается путем переработки сульфидных медных руд. Ведутся научные исследования по разработке новых технологических способов и схем обогащения окисленных и смешанных медных руд гравитационным, флотационным и гидрометаллургическим методами, а также усовершенствуются существующие технологии. В связи с этим уделяется особое внимание на внедрение экологически чистых и экономически эффективных технологических методов обезвреживания газов и отходов, выделяемых благодаря технологическим процессам, уменьшению себестоимости переработки руд в результате извлечения благородных металлов, кроме меди, за счет комплексного использования медных руд на основе внедрения инновационных технологий с использованием современного оборудования при обогащении окисленных и смешанных медных руд.

В Республике выполняется ряд научно-практических работ по проведению технологических исследований, посвященные разработке технологии переработки медных руд с использованием местных реагентов и современных оборудований с высокой производительностью с целью освоения новых месторождений меди. В Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы<sup>1</sup> определены важные задачи: «Стимулирование научной и инновационной деятельности, создание эффективных механизмов внедрения инновационных достижений, широкое внедрение в производство энерго- и ресурсосберегающих технологий...». Исходя из этих задач, исследования, направленные на разработку и внедрение методов интенсификации процессов обогащения окисленных и смешанных медных руд и обеспечение экологической устойчивости, имеют большое научное и практическое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-3145 от 24 июля 2017 года «О мерах по совершенствованию управления научно-исследовательскими и проектно-изыскательскими работами в сфере промышленного освоения месторождений

---

